



# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

1(3)  
—  
2023



## MUNDARIJA

<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA .....</b>	<b>6</b>
Lochin ZARIPOV. Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kredit-modulli o'qitishning ahamiyati .....	6
Aziza QODIROVA. Ta'lrim jarayonida termiziy fikrlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy masalalari ...	11
To'lqin RASULOV, Tabassum SALEEM, Umida UMAROVA. Didactic approach and innovative methods in distance learning .....	16
Dilnoza NOSIROVA. Talabalar ma'nnaviy tafakkurini harakatl o'yinlar orqali rivojlantirish .....	20
Xudaykulov Rustam Zakirovich. Bo'lajak muhandislarning "Avtotransport vositalarining diagnostikasi" fani asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	24
Ulug'bek ESHQUVVATOV. Talabalarni muhandislik kasbiga yo'naltirishning dolzarbligi .....	29
У.И. МУРТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы.....	32
Dilfuza O'RMONOVA. Takrorlash va mustahkamlash darslari jarayoniga pedagogik maqsadlar taksonomiyasini tatbiq etish .....	37
Nargiza DILOVA. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash - pedagogik muammo sifatida .....	45
Ulug'bek MAMUROV. Aksiologik yondashuv asosida talaba – yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish .....	49
Laylo OCHILOVA, Lobar RAJABOVA. Steam usuli - ta'lrim jarayonida innovatsion texnologiya sifatida .....	54
Nohida DJUXONOVA. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning etnopsixologik xususiyatlari (o'zbek-qirg'iz oilalari misolida) .....	58
Nargiza DILOVA. Shaxslararo munosobat va uning mohiyati .....	63
Aziza QODIROVA. Imom at-Termiziy shaxsining psixologik-pedagogik va fikrlarining qiyosiy-analitik jihatlari .....	68
Nodir RO'ZIYEV. Ekstremal vaziyatlarda o'spirinlar himoya mexanizmining psixologik tahlili .....	71
G.E.ARTIKOVA. 9-10-sinfda "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" fanini pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitishning ilmiy-metodik asoslari .....	74
Nozira MUSINOVA. Oila tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanish imkoniyatlari .....	79
<b>MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM .....</b>	<b>82</b>
Rustambek QO'LDOSHEV. Scientific theoretical basis of construction of elementary school textbooks ..	82
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limalda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi .....	86
Asror KASIMOV. Xalqaro tajribalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilaring kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish .....	89
Shakarjon QO'CHQOROVA. Darsliklar bilan ishslash o'quvchilar faolligini oshirish vositasi sifatida...	91
Feruza SHARIPOVA. Grammatik tushunchalarni shakllantirishda ta'limiyl o'yinlardan foydalanish .....	95
Sabohat SUBHONNOVA. 1-sinf chapaqay o'quvchilar bilan ishslash va yozuvga o'rgatish .....	98
O'g'iloy MUSTAFOYEVA. Sinfdan tashqari o'qishni tashkil etish usullari - samarali o'qitishning turi sifatida .....	101
Habiba JUMAYEVA. Psychological characteristics of development of creative abilities of primary class students .....	105
Dilnoza KARIMOVA. Birinchi sinf o'quvchilarining chiroqli yozish ko'nikmasini shakllantirish usullari .....	109
Dilfuza DJO'RAYEVA, Nasiba NASIMOVA. Maktabgacha ta'lrim yoshidagi bolalarning ta'limg-tarbiyasida pedagog xodimlarning o'rni .....	112
Sitora NIYAZOVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda milliy harakatl o'yinlardan foydalanish metodikasi .....	115
Mavjud NIGMATOVA. Maktabgacha ta'lrim tashkilotlarida kompyuterli ta'limiyl o'yinlar texnologiyasi .....	119
Flora NE'MATOVA. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi .....	125

## **TA'LIM JARAYONIDA TERMIZIY FIKRLARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI**

*Ruhning maskani boshdadir, keyinchalik esa u butun tanaga tarqab ketgandir. Nafs esa qorinda yashaydi, u ham butun tanani qamrab olgan. Qalbga aqlni vakil qildi va aqlga ma'rifatni vakil qildi. Aql, ilm, ma'rifat, fahm va ziyraklik kabilarning barchasi qalbning askarlaridir. Shahvatlarni sevish, nafsning shodligi-yu, ziynatlari esa uning askarlaridir.*

**Kalit so'zlar:** *ilm, nur, tasavvuf, hakimiya tariqati, hadisshunoslik, inson aqlining kuchi, munozara va babs, odob-ahloq qoidalari, nafsnii jilovlash, ruhni tarbiyalash masalalari.*

*Обитает души находится в голове, а затем она может распространится по всему телу. Нафс, с другой стороны, живет в животе, который также покрывает все тело. Он представлял разум сердцу и просветление разуму. Ум, знание, просветление, понимание и интеллект — всё это солдаты души. Любовь похоти, радость похоти, а украшения — её воины.*

**Ключевые слова:** *учение, луч-свет, суфийское учение, пути исповедания, хадисоведения, сила человеческого ума, вероучение Ал Хакима Термезий, дискуссия и обсуждение, этические правила, обузданная страсть, вопросы психического воспитания.*

*The abode of the soul is in the head, and then it may have spread throughout the body. The concupiscence, on the other hand, lives in the abdomen, which also covers the whole body. He represented the mind to the heart and represented enlightenment to the mind. Mind, knowledge, enlightenment, understanding and intelligence are all soldiers of the soul. The love of lusts, the joy of lust, and its adornments are its soldiers.*

**Keywords:** *Enlightenment, mysticism, theology 'Hakimiya', hadith studies, the power of the human mind, discussion and debate, the rules of etiquette, will control, soul nurture.*

Alloh taolo odamzodni dunyoga amir qildi, undagi narsalarni badaniga ozuqa qildi. Qalbini a'zolariga amir qildi, ma'rifatini esa qalbiga amir qilib qo'ydi. Go'yoki: "Bu dunyo ichidagi narsalar bilan hammasi senga. A'zolaring ham barchasi seniki, qalbing esa menkidir. Agar qalbingni men uchun asrasang, dunyoning hammasini egallaysan, a'zolaring o'zingga o'lja bo'ladi. Ammo qalbingni beparvo qoldirsang, uni men uchun asramasang, dunyodan zarar ko'rasan, nafsingni ham boy berasan!"[1, 21].

Shu bois, a'zolaringni qalbingga tobe' qildi, nima ish qilsa, faqat uning buyrug'i bilan qilsin. Dunyonи a'zolaringga tobe' qildi, undan foydalar olsin, ammo dunyo qalbingdan biror joy olmasin.

Amirlik mansabiga o'tirgan kishi odil bo'lsa, hokimiyati samarali bo'ladi, mamlakat uning hokimligidan foydalar ko'radi. Chunki u mamlakat foydasi uchun islohotlar qiladi. Ammo kimki amirligida zulmga yo'l qo'ysa, hokimiyatdan chetlatiladi, mamlakatidan ham noumid bo'ladi. Zolim kishi begonalarning begonasiga aylanadi [1, 22].

Alloh taolo odamzodni yaratdi va uning ichida bir parcha go'shtni barpo qildi va o'zgarib turuvchi

bo'lgani uchun uni qalb deb atadi. Va shu qalbni a'zolarga amir qildi va qalbning ichiga O'z ma'rifatini va O'zining Zotiga bo'lgan ilmni qo'ydi. Qalb a'zolarni saqlab turishga vakil qilindi. Banda esa qalbni saqlashga va uni tutib turishga vakil qilindi. Bu ishni boshqa hech kimga yuklamadi. Holbuki, Alloh taolo qalblarni O'zi xohlaganidek aylantirib turuvchidir. Qalbga aqlni vakil qildi va aqlga ma'rifatni va Allohnning Zotiga bo'lgan ilmni qo'ydi. Insonning qornini shahvatlar ma'dani qildi. Va u yerga turli narsalarga nisbatan shahvat, xohish, istakni joyladi. Bu ishlarga havoni vakil qildi va havoning ichiga Alloho ni tanimaslik zulmatin soldi. Demak, aql o'zidagi Alloha bo'lgan ma'rifat va Allohnning zotiga bo'lgan ilmi bilan qalbni Alloh tomonga yo'llab turadi. Havo esa nafsingni o'tkinchi shahvoniy narsalarga boshlaydi [1, 22].

Bu ikkalasi ham jonli bo'lib, u ikkisida ham hayot bor. Birida samoviy hayot, boshqasida Yer hayoti. Birining ismi ruh, boshqasi esa nafs deb ataldi. Ruhning maskani boshdadir, keyinchalik esa u butun tanaga tarqab ketgandir. Nafs esa qorinda yashaydi, u ham butun tanani qamrab olgan.

Agar inson uxlasa, nafs tanadan chiqib, Alloh

12 tomonga ko'tariladi, ruh esa qalbda qoladi. Aslida nafs ruhga tayanadi. Nafs o'ralib, aslo chiqolmay va hech narsa qila olmay qiynalib qoladi. Uyqudag'i xurillash ana shu sababli yuz berdi. Agar nafsning masofasi uzoqlashsa, xurillash pasayadi va harakatlar susayadi, a'zolar xuddi o'lganday bo'lib qoladi. Buning sababi jasadda nafsdan bir oz miqdor qolganligidir. Ya'ni aksari chiqib ketib, ruhga suyangan qismi qoladi, xolos. Bu haqda Alloh taolonning kalomida: "Alloh jonlarni o'lgan vaqtida, o'lmanlarni esa uLAYotgan paytlarida olur", - deyilgan.

Alloh taolo bandalarga qalbning amir ekanligini, unda xazinalar yashirin ekanligini bildirdi. Qalb uchun Allohnning huzurida ahd bor. "Qalbning atrofida askarlarim bor", - deydi Alloh taolo, "Men bu qalbga barcha a'zolar o'rtasidan joy berdim, ko'ksida ikkita qalb ko'zi berdim, insonning qalbini tadbir va hukm qiladigan, haq bilan botil ishlarni ajratadigan joy qildim. Bu insonga xitob qiladigan kalomimni tushunib qoladigan bir eshituvchi qulqo berdim, qalbida ishlarning mohiyatini ko'radigan va g'ayb ishlarni mushohada qiladigan ko'z yaratdim. U ko'zga nurimni joyladim, qulog'iga hayot nuri, qalbiga fikr-o'y xislatini ato etdim. Meni izlash uchun o'laydigan bir fahm berdimki, shu bilan meni topsa deb. Agar qalb Meni topsa, meniki bo'ladi va Men uniki bo'laman.

Agar qalb shu holatda bo'lsa, amirligi kuchli va qo'l ostidagilari odobli bo'ladi. Ularni Mening buyurgan va qaytargan narsalarimning chegarasida tutib tura oladi, maxluqlarimdan har bir narsani o'z o'rniga qo'yadi. Buyruqlarimni joyiga qo'yadi. Tadbirlarimning har birini bajaradi. Mana shuni g'animat bilib qo'l ostidagilarga adolat bilan podshohlik qiladi. Qalb barcha boyliklarga ega bo'ladi. Huzurimga kelgan kuni barcha shodliklar unda bo'ladi. Menga uchrashgan kunida to'la xursand bo'ladi, meni ko'rgan kunida hmma shifolar unga bo'ladi" [2, 23].

Kimki qalbining g'amini ikkita g'am qilsa, ya'ni gohida Rabbisini o'ylasa, ba'zida nafsining g'amini yesa, u holda uning nafsdan sanoqsiz g'amlar shoxlab chiqadi. Ana shu g'amlarning har birida halovat bor, shahvat bor, lazzat bor. Bunday qalb mendan ketgan bo'ladi, uni o'ylarining halovati qamrab olgan bo'ladi, - deydi Alloh taolo. G'am, o'y-tashvishlar sargardon bo'lish ma'nosidadir. G'amga, o'yga botdi degani, albatta, adashdi, sargardon bo'ldi, demakdir. Demak, qalbning o'y-fikri, g'am-tashvishi Rabbisi uchundir, U zotni topish yo'lida sargardondir. Holbuki, qalb bir parcha go'sht bo'lib, jasaddagi o'z o'rmini aslo tark qilmaydi. Unda ma'rifat nuri, ilm nuri, aql nuri, Allohdan kelgan hayot nuri mavjud. Allohnning hayot nuri bilan yuqorida

uchta nur vujudga keladi. Bu nurlar xotiraning ichida saqlanadi. Bunday saqlashga sabab ularni bergan Alloh taolo edi. Agar ruxsat bersa, bandaning miyasidagi hifz mazkur nurlarni yuzaga chiqaradi. Qalb bu nurlarni oshkor qilsa, banda zikr qiladi. Ana shu paytda banda Rabbisi tomonidan eslanadi. Bu yodlov qalbning aql, ilm va ma'rifat nurlari bilan Rabbisi tomon talpinishidir. Hayot nuri esa bu zikrning markabi bo'lib uni Allohga yetkazadi. Har bir zikr qalbga hayot nuridin olgan nasibasining miqdoriga qarab quvvat bo'ladi [1, 24].

Mazkur nurdan eng to'la nasiba oluvchi banda sayru suluku kuchli va darajasi baland va Alloh taologa yaqin bo'lgan kishidir.

Xullas, ayrim zokirlarning zikri osmonga ko'tariladi, so'ngra ojiz bo'lib, to'xtab qoladi. Ayrim zokirlarning zikri esa, Illiyyingacha boradi, so'ng ojiz qoladi. Ba'zi zokirlarning zikri Arshgacha ko'tariladi va u yerda ojiz qolib to'xtaydi. Bir toifa zokirlarning zikri hijob maqomigacha ko'tariladi, so'ngra ojiz qoladi. Ayrim zokirlarning zikri Alloh taolonning dargohigacha kirib boradi, Alloh taolonning huzurida e'tibor topayin deb nur pardalari ortidan "Podshoho, Podshoho" – deb chaqiradi. Bularning barchasi Alloh taolo ato qilgan hayot nuri bilan bo'ladi. Mana shu holat qalbning Alloh taolo tomonga sayri deyiladi. Ammo barcha go'sht qorinda o'z o'rnida qolaveradi. Undagi mazkur nurlar esa unga mansubligi bois barchasi qalb deb ataladi. Xuddi shu inson o'zidagi unsiyat sababidin inson deb atalganidek. Yana xuddi odamzod o'zidagi bir odamgarchilik, kirishimlilik bo'lganidan odam deb atalganidek. Bu sifat bir qo'shilishib ketish bo'lib, Alloh taolo uni ham O'z qudrat qo'li bilan yaratdi. Shuning uchun taomxo'rish – "idom" deb ataldi, "odam" so'ziga yaqinligi jihatidan. Chunki kishi o'sha idomni (xo'rishni) shirin bo'lsin deb taomiga qo'shadi. Inson taomimi xushxo'r qilgani uchun, unga qo'shilishib ketgani uchun bu narsani idom deb atadi. Yana nafs va ruh hayoti sababli tirik bo'lganligi uchun hayy deb atalganidek. Ruhning hayoti nafsnинг hayotidan boshqachadir [3, 24-25].

Qalb esa o'zgarib turganligi uchun qalb deb ataldi. Alloh taolo uni xizmat turlari ko'p bo'lganligi uchun uyoq-buyoqqa o'zgartirib turadi. Boshqa narsalar esa bo'ysungan. Bo'ysunishlik sobit turishni taqozo qiladi, ketib qolmaydi. Alloh taolo kimni xizmat uchun yaratgan bo'lsa, uni o'zgartiradigan qilib qo'yadi, chunki O'zining xohishi uchun uni yaratdi. Alloh taolonning xohishlari esa bu bandada turli-tumandir.

Alloh taolo bandani O'z xohishiga ko'ra aylantirib, o'zgartirib turishining sababi, qani, bu banda Alloh taolonning irodalariga xursandchilik

bilan oshiqib amalga kirishadimi yoki yo'qmi? Muhabbat ila zavqlanib amal qiladimi? Bir ishda Alloh taoloning irodasi ko'rinsa, shuning halovati sabab boshqa ishini unutib, balki o'zini ham unutib, shu ishda Alloh taoloning xohishiga qarab yugurib, uchib harakat qilsa, uning halovatini ikki labi orasida topadi [1, 25].

Ammo nafs bandani bu ishdan uzib qo'ysa, hayoti ketib umri foniyl bo'ladi yoki banda Allohnning ishiga oshiqmaydi, ikkilanadi, og'ir oladi, xohlamasdan ikkilanib amal qiladi va labini buradi. Aziz va Ulug' bo'l mish Alloh taoloning hukmiga noxush qaraydi, xuddi egasiga o'rgannagan qochqoq tuyadek.

Alloh taolo aytganki: "Biz maxluqotni ajoyib qilib yaratdik, hech kim bizga o'xshamaydi. Chunki Biz bandani Bizga muhabbat qilishi uchun yaratdik va Biz bilan shod bo'lsin uchun yaratdik" [1, 25].

Kimki bu narsalar uchun yaratilgan bo'lsa, xizmat uning vazifasidir. Bunday bandaning ro'parasida butun koinot turadi. Chunki senga muxolif bo'lgan turli istaklar har xil bo'ladi, ularni senda xazina qilib yashirib qo'ygan bo'ladi. U istaklarning ba'zisi ba'zisiga o'xshamaydi. Demak, xaloyiqning orasidan seni shunaqa qilib yaratibdimi, seni abadiy shunaqa qilib yaratgandir. Boshqa maxluqlar esa o'zlar yaratilgan asl narsalarga qaytadilar. Hayvonot va qushlar kabi tuproqdan yaratilgan bo'lsalar tuproqqa qaytadilar. Quyosh va oy kabi o'tdan yaratilgan narsalar o'zlar yaratilgan o'tga qaytadilar. Odamzod esa o'z abadiyatida qoladi.

Allohga xizmat qilgan bandalar xaloyiqning eng yaxshisi bo'ladilar. Ularga jannati Adn muntazir va u yerda abadiy qoladilar. Alloh taolo ulardan rozi bo'ladi va ular ham Allohdan rozi bo'ladilar. Xizmatdan qochganlar xaloyiqning eng yomoni bo'ladilar va jahannamda abadiy qoladilar. Bu ma'noni Alloh taolo O'z kalomi majidida xabar bergen [3, 25-26].

Demak, xizmatni to'liq qilish odamzodning toqatiga qarab bo'ladi. Odamzod o'z qalbini barcha ishlarda, barcha holatlarda, barcha vaqtarda rozi bo'lib Alloh taoloning xohish-istiklariga sarf qilishi kerak. Nafsnig xohishlari Alloh taoloning irodasi oldida yo'q bo'lishi kerak. Chunki bandaning istaklari shahvoniyl bir shirinlikdir. Alloh taoloning irodasi kelganda banda o'z qalbida o'z Xojasi Allohga bo'lgan muhabbatni tuyadi, Uni sevib qoladi va butun qalbi bilan o'sha muhabbatning halovatini his qiladi. Nafs istagining halovatini tuymaydi.

Chunki Alloh taolo irodasining halovati butun qalbini qamrab to'ldirib bo'ldi. Shahvatlar muhabbatni uchun biror bir joy qolmadi. Demak, muhabbat halovati oldida banda mag'lub bo'ldi [4,

26].

Biz Alloh taoloning mahbublaridirmiz. Boshqa xalqlar esa Alloh taoloning majburlaridir. Ularni bizga bo'ysundirmoq uchun Alloh taolo majbur qilgan va ularga nisbatan Allohnning xohishi yo'q. Biz Allohnning muhabbatni uchun yaratildik. Boshqa xalqlar esa Allohgaga bo'ysunish uchun yaratildi. Hammalari Allohnning buyrug'ini majburiy bajarishda bardavomdirlar. Biz esa Allohnning muhabbatida barqarormiz, muhabbat bizning asosimizdir. Va bu muhabbatda shodlik bor, halovat bor, hayot bor. Bu narsalar hammasi muhabbatning natijalaridir.

Alloh taoloning bizga qilgan tarbiyalaridan biri olovni (do'zaxni) yaratganidir. Va do'zaxning eshigi atrofiga turli ziynatlar va shodliklarni qo'ydi. Ana shu hayot u yerda hukmron sultondir. U sultondan o'lim yaratilgandir. Shuning uchun shahvoniyl ishlarning barchasi, agar sohibi Allohdan g'ofil bo'lsa, qalbni o'ldiradi [4, 26-27].

Alloh taolo odamzodga do'zaxning atrofini o'rab olgan mazkur ziynatlarini va shodliklarini berdi. Bu borada Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bunday dedilar: "Do'zax shahvatlar bilan o'ralmishdir".

Biz jasadlarimizni ikki xil muhabbat va ikki xil shodlik o'rtasiga qo'yilganini ko'rdik. Alloh bilan shod bo'lish va uni sevish yoki nafs bilan shod bo'lish va nafshi sevish. Allohga bo'lgan muhabbat va shodlikning manbasi qalbdir. Nafs va uning shahvatlari bilan shod bo'lish manbasi esa qorindir. Banda ikkisini ham sevadi, u bilan shodlanadi. Lekin bu shodlik Alloh bilan bo'ladigan shodlikdir va u muhabbatning asli Alloh taolodandir, jannatdadir. Va ikkinchi shodlik hamda muhabbatning asli ham Allohdan bo'lib do'zax eshigidadir.

Banda qaysi biriga amal qiladi va qaysisiga mayl qiladi? Allohdan bo'lgan muhabbatga, Undan bo'lgan shodlikka moyil bo'lsa, jannat uchun, dorussallom uchun amal qilibdi, Allohnning buyruqlari va qaytarqlariga itoat qilibdi, dunyoviy aloqalarini uzibdi. Yoki do'zax eshigining oldidagi ziynatlar va shodliklarga mayl qilsa, nafsi uchun amal qilibdi, bu esa uning qalbiga g'olib bo'lib ketibdi. Shunda bu banda shariat hadalaridan oshgan bo'ladi va farzlarni zoe qiladi. Havoyi nafs bo'yicha ish qilgan bo'ladi. Mana shu yerda nafs bilan qalb o'rtasida kurash paydo bo'ladi. Qalb Allohnning muhabbatiga, uning shodligiga moyildir. Nafs esa shahvatlar shodligiga, shahvatlar muhabbatiga moyildir.

Aql, ilm, ma'rifat, fahm va ziyraklik kabilarning barchasi qalbning askarlaridir. Shahvatlarni sevish, nafsnig shodligi-yu, ziynatlar esa uning askarlaridir. Kimki mujahadanai tark qilsa, qalbi nafsi tomonga ketib asir bo'ladi.

14 Unda Allohning buyruqlari va qaytariqlaridan birorta ham qolmaydi. Bunday bandaning ichki olami dushman shaharlaridan bir shaharga aylanadi [3, 27].

Kimki qalbini qo'lga olib, g'ayrat qilsa, nafsi asir qilib oladi. Buyruqlar va qaytariqlar qalbiga kiradi va uning askarlari ko'rindi, sultonligi zohir bo'ladi va amirligi toza bo'ladi. Qachonki banda dinida mana shu maqomga yetsa, unda gunohlar iflosligidan batamom chiqib bo'lgan bo'lsa ham, unda ba'zi bir dunyoviy aloqalar, ayrim kirlar qoladi. Albatta shirk va kufr kabi najosatlardan ham qutulg'an bo'ladi.

Ammo ayrim kirlar qoladi dedik. Ha, agar banda dunyodan aloqalarini uzsa, shu kirlar ketib, Allohdan uni to'sib turadigan bulutlar qoladi. bunday martabadi g'ayrat qalbi bilan Alloh tomonga yashirin intiladi. Mazkur bulutlar maxfiylik belgisidir.

Odamzod Alloh taologa imon keltirishidan oldin Allohdan juda uzoq bo'ladi. Chunki u mazkur narsalar bilan Imon keltirsa, shirkdan yuz o'girsa, najaslardan chiqqan bo'ladi so'ngra bundan keyin gunohlarni qilmay qo'ysa, kirlardan ham chiqqan bo'ladi. Agar dunyodan aloqalarini uzgan bo'lsa, kirlardan ham chiqadi va unda faqatgina bulutlar qoladi [4, 28].

Al-Hakim at-Termiziy rahmatullohi alayhdan bir kishi: "Siz aytgan Allohdan to'sib qoladigan bulutlar nima o'zi?" – deb so'radi.

U zot javob berdilar: "Allohning bandaga bergen ne'matlari ichida turib nafsga iltifot qilmoqdir. Bu bulutlar Alloh taolonning xohish irodasini mulohaza qildiradigan istaklar g'aflatdir, Allohdan uzoqlashtiradigan istaklardir. Bandada xohish qandoq ham bo'lsin, vaholanki u Alloh taolonning istak-irodasi barcha xohishlarni o'chirib bekor qilib tashlashini biladi va barcha istaklar Alloh xohlagan mashiyatlar oldida behudaga aylanib qoladi. Alloh har ishga qodir va xohlaganini amalga oshiradi".

Bandani ikkilantirib chalg'itadigan mana shu istaklar qalb ko'zi bilan mulohaza qilinadigan mashiyatlardir. Keyin ikkilantirgan xayolotlarni tark qiladi. Xayolotlar tark qilinsa fikrga aylanadi. Fikrlar esa qalbdagi, tomirlardagi halovatga aylanadi. Tomirlar nafsu havoning istaklarini simiradi [4, 28].

Mazkur bulutlar va pardalar qalbni poklaydi. Shu bois qalb Alloh tomon o'g'rinchaga qarab qo'yadi. Chunki Alloh taolo odam bolasi bilan "qalb Alloh uchun bo'ladi va boshqa a'zolar qalb uchun bo'ladi" degan ma'noda shartlashgan edi. Qalb Allohning muhabbatini uchun xos qilingan edi. Endi banda boshqani yaxshi ko'rib qolsa ham, mhabbat bilan yaxshi ko'radi. Chunki u muhabbat uchun yaratilgandir. Bandaning fe'li harakatlari

o'sha muhabbat, o'sha shodlikka qaytuvchi bo'ladi, bog'liq bo'ladi. Agar banda qalbi bilan Alloh tomonga yuzlansa, katta qiyinchilik bilan nafs qulligidan ozod bo'ladi. So'ngra banda ahdini buzib yana past ketadi, Alloh tomon o'g'rinchaga, yashirin qaraydi. Bu esa Parvardigor bilan hazillashish va o'yindir. Agar qalb o'zini saqlasa, o'g'rilikni tark qiladi.

Yana bir so'rovchi u zotdan: "Qalbning qo'rg'onlanuvni nima?" - deb so'raganda, u kishi quyidagilarni aytdilar:

- Bunga bir necha zarbulmasal keltirayin. Alloh taolo ayollarga bo'lgan shahvatni va muhabbatni va ularga bo'lgan ziynatni sening ichingda yaratib, buni O'z kalomida senga bildirmadimi? Alloh taolo dedi: "Odamlarga ayollar, farzandlar, uyum-uyum oltin-kumushlar, saman otlar, chorva mollari va ekinlarga nisbatan mehr qo'yish ziynatlari qilib qo'yildi. Bular (aslida) dunyo hayotining (o'tkinchi) matohidir. Allohning huzurida esa (bundanda) chiroyli joy (jannat) bordir" [5, 29].

Toatni sevishda bardavom bo'lsang, zohidlikni sevsang, taqvoni sevsang va Allohdan keladigan atolarni sevsang edi. Sevganda ham bularning barchasini Alloh uchun sevsang! Lekin Alloh uchun bo'lgan sevging ko'ptarmoqlidir. Har bir muhabbatda bir bog'liqlik bor. Mana shu irmoqlar, mana shu shohlarni o'stirib chiqargan asl muhabbatga hali banda yetmagandir. Agar bunga yetganingda edi, qalbing saqlangan va pokiza bo'lar edi. Sen esa o'g'irlilikni tashlagan bo'lar eding. Chunki shunda qalbing Allohning muhabbatini bilan to'lib toshgan bo'lardi. Bu sevgi ko'ksingga-yu tomirlaringga toshib chiqardi. Shunda Allohta vosil bo'lasan, sokin xotirjam bo'lasan. Topgan halovatingdan nafsing va qalbing orom oladi.

Shuning uchun Alloh taolo: "Men uylarda yashamasman, qaysi uy ham meni sig'dirardi? Kim meni izlasa, men iffatli, marhamatli, sokin va yumshoq bandaning qalbidaman", - degan.

Afif shunday zotki, uning qalbi nafsoniy halovatlardan saqlangan va iffatlari bo'ladi. Chunki bu qalb Allohning muhabbatidan komil nasiba topgan va bu muhabbatdan to'lib toshgandir. Marhamatli inson esa shahvatlarni Alloh uchun tark qilgan xotirjam kishidir. Yumshoq qalblilar esa rahmatga cho'mgan va butun hayotini Allohning yo'liga bag'ishlagan zotlardir.

Bunday banda yumshoq bo'lishi bilan birga tok daraxti kabi qattiq hamdir. Tok yumshoq, ho'l, egiluvchandir. Bambuk va shunga o'xshagan daraxtlar ham bunga misol bo'la oladi. Bunday bandani maqtasang maqtaladi, ya'ni bursang buriladi, egsang egiladi, sinmaydi, uzilmaydi.

Qalb iffatli bo'lganligi uchun yumshoq

bo'ladi. Chunki shahvatlarning mijozi issiq bo'lib, qalbin quritib yuboradi. Qalb shahvatlar natijasida qurib qoladi. Agar iffatli bo'lsa, rahmatga cho'msa, ana shunda qalb Alloh uchun bo'lgan qalb bo'ladi. Va bunday qalbning sohibi uni Alloh uchun saqlab turadi [5, 30].

Rabbimiz O'zining borligini Arshga zohir qildi. Ayni paytda mazkur sifatdagi qalbda ham O'zining borligini zohir qildi. Chunki bunday qalb Arshga, Allohnинг huzuridagi hurmatli joylarga yo'l topa oladi. Agar qalbda Alloh bo'lsa, bunday qalb uning uchun urib turgan qalb bo'ladi.

Bu narsa Rasululloh sollallohu alayhi vassallam Rabbimizdan rivoyat qilib aytgan ushbu hadisi qudsiyda kelgan: "Agar men bandamni yaxshi ko'rsam, uni qulog'i, ko'zi, qo'li, oyog'i va qalbi bo'laman. Men bilan eshitadi, Men bilan ko'radi, Men bilan ushlaydi, Men bilan fikrlaydi va Men bilan yuradi".

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bir hadisi sharifda: "O'g'rilarning eng o'g'rirog'i, o'z namozidan o'g'irlangan kishidir", - dedilar. Agar o'z namozidan o'g'irlagan o'g'rilarning o'g'risi bo'lar ekan, Allohdan o'zining qalbini o'g'irlagan kishini haqida nima deb o'ylaysan?

Biror-bir tavhid sohibi yo'qku, uning qalbi Allohg'a bog'liq bo'lмаган bo'lsa. Bu imonning shartidir. Shundan so'ng inson o'zining qalbini ozozdan Allohdan o'g'irlashni boshlaydi. Bora-boa bu butun qalbini qamrab oladi. Qalb xuddi bir qilga osilganday bo'lib qoladi. Agar u uzilsa, ketib qoladi. Shuning uchun ham Alloh taolo: "Ey Muso, agar muhabbateng mendan uzilsa, Mendan boshqa ip bog'lanmaydi", - dedi. Bu ma'no oyati karimalarda ham kelgan: "Bas, kim shaytonni

(yoxud butlarni) inkor etib, Allohg'a imn keltirsa, demak, u buzilmas, ishonchli xalqani tutibdi".

Ya'ni Allohdan hech bir kesilish yo'q, uzilish yo'q deganidir. Bu banda Allohg'a imon keltirganda Alloh taologa muhabbat qo'yib bog'landi, urvatul vusqoni (shariati) mahkam tutdi. So'ngra qalbi o'g'irlik qila boshladi. Bu ushlagan tutqichning tuguni zaiflasha borib yechilib ketayozdi. Zaifligidan, ingichkaligidan uzilayozdi.

Ana endi bandalarning butun harakatlari barcha istaklarini tark qilishdadir. Zero, o'sha istaklar bandalarni ayni shu ishlarga rag'batlantiradi. Chunki bu istaklar xoin nafsdan va moyil qalbdan chiqadi. Istaklarning tark qilinishi – sodiqlarning Alloh taolo tomon bo'lgan sayri suluklaridagi riyozatlaridir [3, 31].

Agar banda namoz o'qib, ro'za tutib, yaxshi amallarni qilib yuraversa, mana shu bilan Alloh taolo tomonga sayr qilayapman deb o'ylasa, bu odam xato qilibda, yo'ldan adashibdi. Bunday namozu ro'za bilan Allohg'eta olmaydi. Allohg'a yetishish uchun nafsni ayamasdan ishlatish, uning istaklarini Allohg'a taslim qilish va yoqmaydigan narsalarga chidash zarur bo'ladi.

Agar sen o'z xohishingni tark qilsang, seni shahvatlar tark qiladi. Sen bu ishni qilsang, senga yoqmaydigan narsalar keladi va sen siqila boshlaysan. Hatto eng ulug' darajaga yetgan bo'lsang ham, xohishlarining butunlay yo'q bo'lib ketsa-da, yoqmaydigan narsalar senga oson bo'lib qolgan bo'lsa-da ikkilanib qolsan. Shu paytda senga xushxabar bor. Senda Alloh taologa yuzlanish karomati voqiy bo'libdi. Albatta Alloh taolo Karim, Rahim, Vaduddir![4, 31-32].

### **Adabiyotlar**

1. Ал-Ҳаким ат-Термизий. Яширин масалалар ("ал-Масоил ал-макнуна"). Араб тилидан таржима ва сўзбоши муаллифи М.Исмоилов. – Самарқанд: "Имом Бухорий халқаро маркази". 2019. – 216 б.
2. Ал-Ҳаким ат-Термизий. Қайтарилган амаллар (ал-Манхийёт). Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи М.Исмоилов. – Самарқанд: "Имом Бухорий халқаро маркази", 2019. – 256 б.
3. Чориев З., Аннаев Т., Муртазаев Б., Аннаев Ж. Ал-Ҳаким ат-Термизий. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – 149 б.
4. Термизий (Муҳаммад ибн Али Ҳаким). Нодир масалалар /араб тилидан таржима/. Муқаддима, таржима ва изоҳлар муаллифи И.С.Усмонов. – Т.: Мовароуннахр, 2007. – 88 б.
5. Ал-Ҳаким ат-Термизий, Қайтарилган амаллар (ал-Манхийёт). Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи М.Исмоилов. – Самарқанд: "Имом Бухорий халқаро маркази", 2019. – 256 б.
6. Кенжабек, Мирзо /Мусанниф/. Термиз тазкираси. – Т.: Ўзбекистон милий энциклопедияси, 2001. – 192 б.